

QASHQADARYO VILOYATIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA CHORVACHILIK TARMOG'INI O'RNI

Ro'yiddinova Marjona Asliddin qizi – *Qarshi davlat universiteti talabasi*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbekistonda chorvachilikka e'tibor, uning istiqbollari, Qashqadaryo vohasining iqtisodiy hayotida chorvachilikning o'rni, davlat tomonidan chorvachilik sohasida amalga oshirilgan islohotlar, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda chorvachilikning o'rni haqida bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *Qashqadaryo, chorvachilik, qoramolchilik, qo'ychilik, xo'jalik.*

РОЛЬ ЖИВОТНОВОДЧЕСКОЙ СЕТИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Абстрактный. *В данной статье описано внимание к животноводству в Узбекистане, его перспективы, роль скотоводства в экономической жизни Кашкадарьинского оазиса, реформы, проводимые государством в области животноводства, роль скотоводства в обеспечении продовольственной безопасности.*

Ключевые слова: *Кашкадарья, скотоводство, скотоводство, овцеводство, хозяйство.*

ROLE OF LIVESTOCK NETWORK IN ENSURING FOOD SECURITY IN KASHKADARYA REGION

Abstract. *This article describes the attention to cattle breeding in Uzbekistan, its prospects, the role of cattle breeding in the economic life of the Kashkadarya oasis, the reforms implemented by the state in the field of cattle breeding, the role of cattle breeding in ensuring food security.*

Key words: *Kashkadarya, cattle breeding, cattle breeding, sheep breeding, economy.*

Oziq-ovqat xavfsizligi butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. BMT ham bugungi kunda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ularni taqsimlash bo'yicha yondashuvni mutlaqo o'zgartirish vaqti kelganini ta'kidlamoqda. Zero, ideal holatda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari barchani oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlash va odamlar uchun risoladagidek daromad manbaini yaratib berishga qodir. Bunday holatda inson manfaatlari yo'lida ham qishloq xo'jaligi rivojlanadi, ham atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosi ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 martda "O'zbekistonda veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish

to'g'risida"gi qarori bilan viloyatimizning har bir tumanida kamida ikkitadan qora mol bo'rdoqchilik va sutchilik yo'nalishlarida chorvachilik komplekslari tashkil etish maqsadida loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Bugungi kunda tabiatga befarq munosabat, unga antropogen ta'sirning kuchayib borishi, isrofgarchilik, ilg'or va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi oziq-ovqat balansi bo'yicha farqning o'sayotgani, iqlim o'zgarishlari qator salbiy omillarni keltirib chiqardi. Noz-ne'matlarimiz, chuchuk suv, ummonlar, o'rmonlar, biologik xilma-xillik keskin sur'atlarda kamayib bormoqda, yer unumdorligi pasayib, tuproq degradatsiyaga uchramoqda. Qishloq xo'jaligining barcha sohasi uchun tuproq unumdorligi asosiy o'rinlarda turadi.


Oziq-ovqat xavfsizligini hal etishda bir qator qiyinchiliklar mavjudligiga qaramay, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ham miqdor, ham sifat jihatdan muntazam oshirib borish va shu orqali oziq-ovqat ta'minotini mustahkamlash borasida salmoqli natijalar qo'lga kiritilmoqda. Xususan, 2023 yilda belgilangan ko'rsatkichlarga erishish maqsadida 4 million gektar (+358 ming gektar), shundan 2,5 million gektar asosiy, 214 ming gektar bog'-tok qator orasi, 424 ming gektar lalmi va 903 ming gektar takroriy maydonlarda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish belgilangan. Mazkur maydonlardan 8,1 million tonna boshqoli don, 528 ming tonna sholi, 579 ming tonna dukkakli, 345 ming tonna moyli o'simliklar, 12,2 million tn sabzavot, 2,5 million tonna poliz, 4,1 million tonna kartoshka, 3,1 million tonna meva va 2 million tn uzum yetishtirilishi prognoz qilindi.

Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi tarmog'i paxtachilik, donchilik, zabzavotchilik, donchilik, uzumchilik, bog'dorchilik bilan birga chorvachilikning asosiy ixtisoslashgan tarmoqlar zaminida tarkib topgan. Yer suv resurslaridan samarali foydalanish orqali qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish uchun mo'ljallangan yirik masshtabli xaritalarni tuzishda asosiy e'tibor ushbu sohaning o'ziga xos mintaqaviy qaratilishi lozim.

Bugungi kunda respublikamizda jami 18 032 ta chorvachilik xo'jaliklari mavjud bo'lib, shundan 7 614 tasi qoramolchilik, 3 263 tasi qo'y va echkichilik, 142

tasi yilqichilik, 52 tasi tuyachilik, 1 163 tasi parrandachilik, 4 829 tasi baliqchilik, 715 tasi asalarichilik va 254 tasi quyonchilik yo‘nalishida tashkil etilgan.

1-jadval



Aholi jon boshiga go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarish 47,5 kilogrammga (1 kishiga yillik me‘yor — 46,1 kilogramm), sut mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘rsatkichi 336 kilogrammga (1 kishiga yillik me‘yor — 310,4 kilogramm) yetkazildi.[1]

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan dasturning maqsadli ko‘rsatkichlari (indikatorlar)

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	2021-yil	2022-yil	2024-yil	2026-yil
Chorvachilikda naslchilik va chorva mollari mahsuldorligini oshirish yo‘nalishida					
1.	Umumiy qoramollar podasida sof zotli naslli qoramollarning ulushi (foiz)	9	11	16	33
2.	Umumiy qoramollar podasida zoti yaxshilangan mahalliy qoramollarning ulushi (foiz)	54	62	72	90
3.	Chorva hayvonlarini saqlash uchun kompyuterlashtirilgan dasturlardan foydalanuvchi chorvachilik xo‘jaliklari sonini ko‘paytirish (foiz)	20	25	30	50
4.	Milliy va xalqaro (Global GAP, NACCP va boshq.) standartlarga javob beradigan fermer xo‘jaliklarining ulushi (foiz)	1	2	15	30
Qo‘ychilik va echkichilik tarmog‘ida					
5.	Go‘sht-jun yo‘nalishida naslli qo‘y va echkilar ulushi (foiz)	15	20	25	35
6.	Qurg‘oqchilikka chidamli bo‘lgan yem-hashak o‘simliklarini ekish bilan tog‘ va tog‘oldi yaylovlarining hosildorligini oshirish (sentner/ga)	8	9	10	12

7.	Yaylovlarda tik quduqlar qazishga ruxsat berish (ming/ga)	—	200 ming ga	500 ming ga	800 ming ga
----	---	---	-------------	-------------	-------------

Yaylov yerlaridan maqsadli foydalanish orqali arzon ozuqa mahsulotlari yetishtiriladi hamda chorvachilik sohasida suv resurslari va energiya iste'moli tejamkorligiga erishiladi. Iqlim o'zgarishi, tabiatning biologik xilma-xilligini saqlash va cho'llanishga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro jarayonlarni e'tiborga olgan holda chorvachilik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni tabiiy resurslar barqarorligini va atrof-muhit muhofazasini ta'minlashga qaratish muhim hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyatida zamonaviy chorvachilik komplekslarini tashkil etish bo'yicha qiymati 235,437 mlrd so'mlik 73 ta loyiha ishlab chiqildi. 2023-yil 15-iyul holatida tijorat banklarining viloyatda faoliyat ko'rsatib kelayotgan filiallari tomonidan 105 ta chorvachilik yo'nalishidagi loyihani moliyalashtirish uchun jami 44 mlrd 211 mln so'm va xorijiy kredit liniyalari hisobidan esa 877 ming 400 AQSH dollari miqdorida mablag'lar ajratildi.

Misol uchun, Qamashi tumanidagi "Murodov Rahmatullo Mavlonovich" MCHJ 2019-2021 yillarda sutchilik yo'nalishida chetdan naslli qora mollar olib kelish va sutdan 14 xildagi mahsulotlar tayyorlash hamda go'sht mahsulotlarini qayta ishlash maqsadida 447 ming 690 AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritish loyihasi ishlab chiqildi.

Qashqadaryo viloyatida davlat tomonidan chorvachilik uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlardan foydalanib, chorvachilikni rivojlantirishda amaliy ishlar bajarilmoqda. Ta'kidlash joiz, Yurtboshimiz tomonlaridan yurtimizda chorvachilikni yanada rivojlantirish uchun ulkan imtiyozlar berilmoqda. Shu o'rinda chorvachilikni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida ajratilayotgan subsidiyalarni eslatib o'tamiz. Bu imkoniyatlardan samarali foydalanib, chorvachilik tarmog'ini intensiv rivojlantirilsa, chorvachilik sohasidan tushadigan daromadning yuqori darajada ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Skrinnik E. B. O'rta muddatli istiqbolda chorvachilikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari // Qishloq xo'jaligi va qayta ishlash korxonalari iqtisodiyoti, κ 2009.

2. D.A.Ro‘ziboyev. Chorvachilik sohasining rivoji (Qashqadaryo vohasi misolida). World scientific research journal., Volume-8, Issue-1, October, 2022, 42-47 betlar.

3. D.A.Ro‘ziboyev. Qashqadaryo vohasida sovet hokimiyatining chorvachilik siyosati va chorva sonlaridagi o‘zgarishlar. Xorazm Ma‘mun Akademiyasi Axborotnomasi-11/3(95)-2022, 69-71 betlar.

4. *Навотова Д.И.* Қашқадарё вилояти қишлоқ хўжалиги географияси ва уни карталаштиришнинг баъзи масалалари// Электронное научно-практическое периодическое издание. Экономика и социум. №3 (94), 2022. –721-725 с.

5. *Навотова Д.И.* Ер ресурсларидан қишлоқ хўжалигида фойдаланишни тадқиқ қилишнинг назарий-услубий жиҳатлари// Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS). Volume 2 | issue 1 | Tashkent,Uzbekistan. 2022. Б. 321-327

6. Safarov I., Toshquvatov I. Organization of mountain tourism in Kashkadarya region and its significance //Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук. – 2024. – Т. 4. – №. 3. – С. 7-12.

7. Safarov I. B., Rasulov F. I. Development of social spheres in the cities of Kashkadarya region //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 85-90.

8. <https://lex.uz/docs/-5858728>